WORLD FORUM ON ACADEMIC INNOVATION AND DIGITAL LITERACY

KITOBLAR ORASIDA YASHAGAN TIMSOLLAR

Yashnobod tuman axborot-kutubxona markazi:
Fondlarni to‘ldirish, saqlash va ularga ishlov berish xizmati mutaxassisi
SEYTNAZAROVA ZULFIYA

“Buyuk zotlarning hayoti – kitoblardek, ularni varaqlagan sari donish, ma’rifat va sabr saboqlari ochiladi.”

Muhammad Yusuf

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston tarixida muhim o‘rin egallagan jadidlar, yozuvchilar, olimlar, shoirlar va buyuk siymolarning tarbiyaviy va ma’naviy qarashlari yoritilgan. Shuningdek, ularning ilm-fan, adabiyot, ma’rifatga qo‘shgan hissasi, asarlari orqali yoshlarga qanday ijobiy ta’sir ko‘rsatilayotgani haqida so‘z yuritiladi. Axborot-kutubxona markazlarining bu boradagi o‘rni ham atroflicha tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Jadidlar, Behdudiy, axborot-kutubxona, ma’naviyat, tarbiya, ma’rifat, yoshlar, siymolar, meros.

Bugungi kunda yoshlarga tarbiya berishda ularning ongiga bilimli, ma’rifatli, vatanparvar shaxslar timsolini singdirish nihoyatda muhim hisoblanadi. Bu borada tariximizda chuqur iz qoldirgan, o‘z xalqining kelajagi yo‘lida jonini fido qilgan siymolarning hayoti, ilmiy-ma’rifiy faoliyati, ularning asarlari beqiyos tarbiyaviy ahamiyatga ega.

O‘zbek jadidchilik harakati vakillari Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Cho‘lpon, Munavvar qori Abdurashidxonov kabi siymolar XIX asr oxiri va XX asr boshlarida xalqimizni jaholat zulmatidan najot topishiga xizmat qilgan. Ularning asarlarida ilgari surilgan g‘oyalar bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Behbudiy tomonidan yozilgan "Padarkush", Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq", Fitratning "Sayha", Cho‘lponning "Kecha va kunduz"

kabi asarlari yoshlarni ezgulik, ma’rifat, mehr-oqibat, adolat yo‘liga yetaklovchi kuchli manba bo‘lib xizmat qilmoqda.

Axborot-kutubxona markazlari bu merosni keng targ‘ib qilishda muhim vositaga aylangan. Kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish, yoshlarda o‘qishga bo‘lgan ishtiyoqni oshirish orqali bu buyuk siymolar hayoti va ijodi bilan tanishtirishga xizmat qilmoqda. Kutubxonalarda jadidlar ijodiga oid burchaklar tashkil etilib, ularning asarlari, tarjimai hollari, faoliyat yo‘nalishlari haqida ma’lumotlar jamlanmoqda.

Tarbiya mezoni sifatida ularning hayoti va faoliyati yoshlarga ibrat bo‘lmoqda. Masalan, Mahmudxo‘ja Behbudiyning xalq uchun xizmat qilish borasidagi fidoiyligi, Avloniyning "tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat" degan fikri bugungi kunda ham dolzarb.

Shuningdek, adabiyotimizning yirik vakillari — Abdulla Qodiriy, G‘afur G‘ulom, Oybek, Hamid Olimjon, Zulfiya kabi yozuvchilar ham yoshlar qalbida ma’naviy olamni boyitishda, insoniylik fazilatlarini shakllantirishda muhim o‘rin egallagan. Ularning ijodida tarixiy xotira, milliy o‘zlik, adolat, fidoyilik, mehr-oqibat kabi tushunchalar asosiy o‘rinni egallaydi.

Olimlarimizdan Al-Beruniy, Ibn Sino, Mirzo Ulug‘bek kabi buyuk allomalar ilmiy tafakkur va izlanishlarga bo‘lgan cheksiz intilishi, sabr-toqat, mehnatsevarlik fazilatlari bilan ajralib turadi. Ularning asarlarida aks etgan ilmiy qarashlar nafaqat Sharq, balki butun insoniyat taraqqiyotiga hissa bo‘lib qo‘shilgan.

Shoirlarimizdan Alisher Navoiy, Furqat, Muqimiy, Hamza Hakimzoda Niyoziy kabi ijodkorlarning asarlari ma’naviyatimizga boylik baxsh etgan. Alisher Navoiy g‘azallarida insonparvarlik, mehr-oqibat, ma’rifatparvarlik yuksak qadriyat sifatida kuylangan. Bu jihatlar bugungi yosh avlod uchun ibrat maktabi bo‘lib xizmat qilmoqda.

Axborot-kutubxona markazlari bu boy ma’naviy merosni keng targ‘ib qilish, ommalashtirish, yoshlarni kitobga oshno qilishda asosiy maskanga aylanmoqda.

Tadbirlar, ma’naviy uchrashuvlar, ko‘rgazmalar orqali bu yo‘nalishda tizimli ishlar olib borilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, kitoblar orasida yashagan timsollar — jadidlar, yozuvchilar, olimlar, shoirlar va buyuk siymolarning hayoti, ijodi, merosi orqali yoshlarni tarbiyalash, ularda vatanparvarlik, halollik, ezgulik, ilmga muhabbat, ma’naviy yetuklikni shakllantirish mumkin. Bu yo‘nalishda axborot-kutubxona markazlarining o‘rni beqiyosdir.

Kelajak avlodni barkamol etib tarbiyalashda bunday merosga suyanish har bir ma’rifat maskanining ustuvor vazifasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Avloniy, A. (2004). Turkiy Guliston yoki axloq. Toshkent: Sharq.
2. Behbudiy, M. (1991). Padarkush. Toshkent: Ma’rifat.
3. Fitrat, A. (1999). Sayha. Toshkent: Yangi asr avlodi.
4. Cho‘lpon, A. (1993). Kecha va kunduz. Toshkent: O‘zbekiston.
5. Navoiy, A. (2007). Xamsa. Toshkent: Akademnashr.
6. Qodiriy, A. (1970). O‘tgan kunlar. Toshkent: O‘zbekiston.
7. G‘ulom, G. (1969). Shum bola. Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyoti.